



AKSIZ SOLIG'INI RESPUBLIKA BYUDJETINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA UNING FISKALLIK AHAMIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Jumayev Sherali Halimovich
Bank moliya akademiyasi
ORCID: 0009-0001-1668-0584
Jumaev.sh@soliq.uz

Annotatsiya. Aksiz solig'i davlat daromadlarining hal qiluvchi tarkibiy qismi bo'lib, global miqyosda davlat byudjeti daromadlariga katta hissa qo'shadi. U daromad olish va iste'molni tartibga solish maqsadida alkogol, tamaki va yoqilg'i kabi aniq tovarlardan olinadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda aksiz solig'i to'lovchilari tarkibi, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda aksizlarning roli va aksiz solig'i ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, byudjet, bilvosita soliqlar, byudjet tushumi, aksiz osti tovarlar, soliq mexanizmi, soliq ma'muriyatchiligi

РОЛЬ АКЦИЗОВ В ФОРМИРОВАНИИ РЕСПУБЛИКАНСКОГО БЮДЖЕТА И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЕГО ФИСКАЛЬНОГО ЗНАЧЕНИЯ

Жумаев Шерали Халимович
Банковская финансовая академия

Аннотация. Аксизный налог является важнейшим компонентом государственных доходов и вносит значительный вклад в доходы государственного бюджета во всем мире. Данный налог устанавливается на конкретные товары, таких как алкоголь, табак и топливо, с целью получения дохода и регулирования потребления. В данной статье приводится состав плательщиков аксизного налога, роль аксизов в формировании доходов государственного бюджета Республики Узбекистан, а также рекомендации по повышению эффективности администрирования данного налога.

Ключевые слова: аксизный налог, бюджет, косвенные налоги, доходы бюджета, под аксизные товары, налоговый механизм, налоговое администрирование.

THE ROLE OF EXCISE TAX IN THE FORMATION OF THE REPUBLICAN BUDGET AND DIRECTIONS FOR INCREASING ITS FISCAL SIGNIFICANCE

Djumaev Sherali Halimovich
Banking and Finance Academy

Abstract. Excise tax is a critical component of government revenue and makes a significant contribution to government revenues around the world. This tax is imposed on specific goods, such as alcohol, tobacco and fuel, in order to generate revenue and regulate consumption. This article provides the composition of excise tax payers, the role of excise taxes in generating state budget revenues of the Republic of Uzbekistan, as well as recommendations for improving the efficiency of administration of this tax.

Key words: excise tax, budget, indirect taxes, budget revenues, excisable goods, tax mechanism, tax administration.

Kirish.

So'nggi yillarda yurtimizda soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik faoliyati subyektlariga soliq imtiyozlarini berish, soliq to'lovchilarga yengilliklar yaratish borasida borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-2024 yillar davomida soliq turlari 16 tadan 9 taga kamaytirildi, nazorat shakllari 13 tadan 2 taga qisqartirildi, mol-mulk solig'i, daromad solig'i va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobarga, QQS (qo'shilgan qiyman solig'i) 20% dan 12% ga tushirildi, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida ixtiyoriy bajarilish darajasi 80%dan 95% oshdi. "Economic freedom" iqtisodiy erkinlik reytingidagi "Tax burden" soliq yuki indikatori bo'yicha ko'rsatgich 90.7 ball dan 92.4 ballga ko'tarildi.

Qolaversa, mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning **"2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"** (Farmon, 2022)da belgilangan maqsadlarni amalga oshirish natijasida 2026 yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirishga erishish lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Respublika byudjetini shakllanishida bilvosita soliqlar, xususan Aksiz solig'i muhim daromad manbai hisoblanadi. Aksiz solig'ining fiskal funksiyasi soliq stavkalarini belgilashdan tortib, to uni undirishgacha bo'lgan jarayonda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu boisdan aksiz solig'i dunyoning ko'pgina davlatlarda byudjet daromadlarining asosiy manbasi hisoblanadi. Aksiz solig'i odatda barcha mamlakatlarda, yuqori rentabellik mahsulotlarni ishlab chiqarishdan olingan o'ta yuqori foydaning Byudjet daromadlariga undirish maqsadida o'rnatilgan.

Aksiz solig'ini hisoblash, uning moliyaviy hisobini yuritish tartibi va ulardagi kamchiliklar, Aksiz solig'ining iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ahamiyati, uning hozirgi ahvoli, kamchiliklari va muammolari, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar tarkibini kengaytirish, markirovkalash hamda aksiz solig'iga tortish usullarini takomillashtirish zaruriyati ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Aksiz solig'ini davlat g'aznasiga undirish amaliyotining ildizlari Xitoyda Xan sulolasi va Hindistonda Maurev imperiyasi hukmronligi davriga to'g'ri kelsa, iste'mol tovarlarini soliqqa tortishning nazariy asoslari A.Smit tomonidan "Xalqlar boylıkları" asarida o'z aksini topgan.

A.Smit aksiz solig'i davlat tomonidan "tabiiy ish haqi" darajasi oshirilmasdan turib davlat byudjetiga foyda keltirishi kafolatlangan neytral soliq g'oyasini ilgari surgan¹⁰.

Bunday qarashlarning asosiy sharti shundaki, agar aksiz solig'iga tortiladigan tovar qiymati (alkogol, tamaki, zargarlik, shakar, neft va h.k mahsulotlar) juda qimmatlashib ketsa, iste'molchilar bu tovarlar xaridini o'zlariga cheklab qo'yishlari mumkin, chunki bu turdagi tovarlar birlamchi ehtiyojlar uchun zaruriy hisoblanmasligidir.

Delipalla (2009) tomonidan "aksiz solig'i bilvosita soliqlarning tarkibiy qismlaridan biridir. 1976 yildagi Aksizlar to'g'risidagi qonunning 6-bo'limida ko'rsatilganidek, Malayziyaga va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga import qilinadigan aksiz solig'i. Bu boj davlat iste'moli yoki ijtimoiy muhandislik tendensiyasini o'zgartirish mexanizmi sifatida ishlatiladi. Aksiz solig'i to'g'risidagi aktda majburiy bo'lgan tovarlarga spirtli ichimliklar, tamaki, sigaretalar, sigaretalar, to'rt g'ildirakli haydovchilar, ko'p maqsadli transport vositalari va o'yin kartalari kiradi".

Giles, Tedds (2002) tomonidan kontrabanda faoliyatini soliq organidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy yoki noqonuniy, bozor yoki bozordan tashqari barcha operatsiyalar deb ta'riflagan. Bilvosita soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda, ayniqsa bojxona tariflari bo'yicha jinoyatlar bilan bog'liq. Kontrabanda

¹⁰ Adam Smit tomonidan kiritilgan ishchilarning tabiiy ish haqi kontsepsiyasi taxminan mehnat mahsulotiga mos keluvchi ish haqi ekvivalenti.

jinoyatlari yembargo, mahsulot sifati va kvotalar kabi pul va pul bo'lmagan daromadlarga ta'sir qiladi.

Haiva See (2011) tomonidan soliq to'lovlariga qasddan yoki qasddan jalb qilingan kompaniyalar, jismoniy shaxslar ishtirokidagi o'lchovlar bo'yicha duch kelgan qiyinchiliklar tufayli mos kelmaslik bo'yicha tadqiqot olib borishdi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor soliq to'lovchi sifatida import qiluvchilar o'rtasida aksiz solig'ini bajarmaslik hodisasi va omillariga qaratilgan.

Bundan tashqari, fransuz iqtisodchisi F.Demezoni ta'kidlab o'tgan edi: "Aksizning birgina o'zi boshqa barcha soliq tushumlari berishi mumkin bo'lgan tushumni keltira oladi." (Djamalov, Urazmetov 2021)

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, aksiz osti tovarlarni soliqqa tortish amaliyotini samarali boshqarishda kreativ yondashuvlarning amaliy ahamiyatini yoritish bo'yicha ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aksiz solig'i iqtisodiy transformatsiya davrida joriy etilishi mumkin bo'lgan asosiy soliq hisoblanadi, chunki mazkur soliqni amaliyotga joriy qilishi va to'lanishini nazorat qilishi davlat uchun murakkablik keltirib chiqarmaydi. Tarixan aksizlar iste'molchiga emas, ishlab chiqaruvchiga solinadigan soliq hisoblanadi va tartibga ko'ra ishlab chiqarish joyida undiriladi. Shuningdek, bu soliq mahsulotning birligi uchun qat'iy miqdorda belgilanganligi bilan soliq ma'muriyatchiligini osonlashtiradi. Bundan tashqari agar soliq solinishi lozim bo'lgan mahsulotlarning turi atroflicha o'rganilib joriy qilingan bo'lsa, uni undirish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlarning birligiga nisbatan yaxshigina daromad olib keladi.

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ro'yxatini tamaki, alkogol va neft mahsulotlari tarkibi bilan cheklaydi. Bu mahsulotlar guruhidan olinadigan daromad yuqori, ishlab chiqaruvchilar salmog'i nihoyatda kam va tovarlar kategoriyasi aniq belgilangan. Lekin, soliq stavkasi juda yuqori qilib belgilanmasligi kerak. Iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar uchun bunday vaziyatda kontrabanda tovarlar asosiy muammo bo'lishi mumkin. Chunki mahalliy tovarlarga yuqori aksiz stavkalari xuddi shu tovarlarning qo'shni davlatlarda pastroq stavkalarda soliqqa tortilishi sababli ularga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Shuningdek, ushbu soliq qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash zanjirida ertaroq undirilishi lozim. Aksizlarni import vaqtida yoki ishlab chiqarish jarayonida(yuklanganda) undirilishi maqsadga muvofiq.

Aksariyat davlatlar aksiz solig'i orqali talab va taklifni tartibga solishadi. Ma'lum bir tovar turiga aksiz solig'ining joriy qilinishi shu tovarga bo'lgan talabni kamaytirish bilan ishlab chiqarish hajmini qisqartiradi. Ishlab chiqarish hajmidan kam quvvatlarda foydalanish esa tovar tannarxini asossiz oshishiga olib keladigan bir birlik mahsulotga ketadigan xarajatlarning oshirilishiga olib keladi.

Boshqa tomondan esa aksiz solig'ini joriy qilishning nazariy asoslari byudjet daromadlarini oshirish bilan bir vaqtda ba'zi bir zararli va ahamiyatsiz tovarlarning iste'molini cheklash bilan ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratiladi.

Masalan alkogol, tamaki mahsulotlariga nisbatan joriy qilingan aksiz solig'i ushbu tovarlarga bo'lgan talabni haddan tashqari oshib ketishini oldini olish bilan aholi sog'ligini himoya qilishga ham qaratiladi. Shuningdek, yoqilg'i mahsulotlariga nisbatan joriy qilingan aksiz solig'i jamoat transportiga bo'lgan talabni kuchaytirish bilan boshqa energiya manbalarida ishlovchi avtotransport vositalaridan foydalanishga moyillikni kuchaytiradi.

Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida»gi qonuniga

muvofig, O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan keyinchalik kiritilgan va respublika iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq o'zgarish va qo'shimchalarni hisobga olgan holda ilk marotaba 1992 yilda joriy etilgan edi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan aksiz solig'i bilvosita soliq ko'rinishida byudjetga undiriladigan, narxda va qo'shilgan qiymat solig'i bazasida hisobga olinadigan sof daromadning bir qismidir. Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'i bilan ma'lum bir o'xshashliklarga ega, lekin o'zining alohidalik, aniq tovarlar bilan bog'liqlik darajasi bilan ajralib turadi.

1-jadval


2020-2024-yillarda Davlat byudjeti daromadlarining manbalar kesimidagi ijrosi to'g'risida ma'lumot mlrd.so'm

No	Daromad turlari	2020	2021	2022	2023	2024 prognoz
	DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI, jami	132 938,00	164 799,40	201 863,70	231 721	270 703
	shu jumladan:					
1.	Bevosita soliqlar – jami	45 206,90	58 930,30	64 447,10	73 104	85 611
1.1	Foyda solig'i	28 712,20	38 363,30	37 649,90	40 779	44 283
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	1 353,90	1 649,40	2 512,70	2 407	2 851
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15 140,80	18 917,70	24 284,50	29 917	38 477
2.	Bilvosita soliqlar – jami	46 428,40	56 290,40	71 390,20	83 326	111 655
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177,40	38 439,00	52 189,40	57 885	74 046
2.2	Aksiz solig'i	11 697,30	13 086,50	13 455,00	15 834	22 769
2.3	Bojxona boji	3 553,70	4 764,90	5 745,70	9 606	14 840
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	21 256,90	23 036,40	23 912,80	28 079	31 831
3.1	Mol-mulk solig'i	1 974,30	2 457,30	4 015,40	5 098	6 715
3.2	Yer solig'i	2 386,70	4 082,80	5 305,90	6 890	7 171
3.3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	16 417,10	15 811,90	13 887,40	15 300	16 684
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,8	684,4	704,1	791	1 261
4.	Boshqa daromadlar va soliqsiz tushumlar	20 045,80	26 542,20	42 113,70	47 212	41 606

2020-2024 yillarda jami soliq tushumlari bo'yicha yuqoridagi jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, 2020 yil yakunlariga ko'ra Davlat byudjeti daromadlari 132 938 mlrd so'mni tashkil etib, belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 4 478,0 mlrd so'm yoki 103,5% ga oshirib bajarildi. 2019 yil ko'rsatkichlari bilan solishtirilganda daromadlar 20 774 mlrd so'm yoki 18,5% ga oshgan. Byudjet daromadlari 2021 yil yakuni bilan 164 799,4 mlrd so'mni tashkil qilib, prognozga nisbatan 17 111,2 mlrd so'mga yoki 111,5% ga ko'proq bajarilgan hamda 2020 yilga nisbatan 31 861,3 mlrd so'mga oshirilgan.

Aksiz solig'i bo'yicha, 2022 yilga nisbatan tushumlarning o'sishiga qaramay, 2023 yilda daromadlar prognozi 1,5 trln so'mga (17,9 trln so'm o'rniga 16,4 trln so'm) bajarilmasligi kutilmoqda. Bu asosan, joriy yil oxirigacha AI-80 rusumli benzina aksiz solig'ining nolga tushirilishi, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilish hajmining qisqarishi bilan shartlangan.

Keyingi diagrammada jami soliq tushumlari tarkibida aksiz solig'ining ulushiga ahamiyat qarataylik.




2020-2024-yillarda jami soliq tushumlari tarkibida aksiz solig'i tushumlari (mlrd.so'm)

Jami byudjet daromadlari tarkibida 2020-yilda aksiz solig'idan tushgan tushum 11 697,0 mlrd so'mni tashkil etgan. 2021-yilda oldingi yilga nisbatan 1 389,2mlrd so'mga oshib, 13 086,0 mlrd so'mni tashkil etgan. 2022-yilda 13 455,0 mlrd so'mlik aksiz solig'i tushumlari davlat g'aznasiga kelib tushgan. 2023-yilda esa aksiz solig'i tushumlari oldingi yilga nisbatan 2 379,0mlrd so'mga oshib, 15 834,0 mlrd so'm miqdorida kelib tushgan. 2024-yilda davlat byudjetiga kelib tushishi lozim bo'lgan aksiz solig'i tushumlari 22 769,0 mlrd so'm miqdorida prognozlashtirilgan. Bu oldingi yilga nisbatan 6 935,0mlrd so'mga ko'p demakdir.

Ushbu raqamlarni foizda ko'radigan bo'lsak, 2020-yilda jami soliq tushumlari tarkibida aksiz solig'i 8,7 foizni, 2021-yilda 7,4 foizni, 2022- yilda 6,6 foizni, 2023-yilda 6,8 foizni va 2024-yilda 8,4 foiz bo'lishi rejalashtirilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, byudjet daromadlari tarkibida aksiz solig'i tushumlari bir maromda o'sish yoki kamayish tendensiyasida emas. Bunga sabab aksiz solig'i ma'muriyatchiligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar.



2020-2024-yillarda jami bilvosita soliq tushumlarida aksiz solig'ining ulushi (mlrd. so'm)

2020-yilda aksiz solig'i ma'muriyatchiligida ba'zi o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan: alkogol mahsulotlari, sigaret hamda benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i stavkalari, koronavirus pandemiyasi sharoitida 2020 yil 1 apreldan indeksatsiya qilinmadi. 2020 yil 1 avgustdan avtotransport vositalari importi uchun aksiz solig'i bekor qilindi.

2021-yil aksiz solig'i bo'yicha tushumlar 2020 yil bilan solishtirganda 1 389,2 mlrd so'mga yoki 11,9 %ga oshib, 13 086,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Tushumlarning oshishi asosan 2021 yil fevral va oktabr oylarida soliq stavkalarining o'rtacha 15 %ga indeksatsiya qilinishi hisobiga ta'minlandi (alkogol, tamaki va neft mahsulotlari, pivo). Bunda alkogol mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i tushumlari, stavkalarining indeksatsiya qilinishiga qaramasdan 2020 yil darajasida saqlanib qoldi.

2022-yilda aksiz solig'i – 13 455,0 mlrd so'm, 2021 yilga nisbatan 368,5 mlrd so'm yoki 2,8%ga oshdi. 2022-yilda aksiz solig'i tushumlariga 2022 yil 1 iyundan alkogol va tamaki mahsulotlari uchun belgilangan absolyut summadagi stavkalarining o'rtacha 10%ga oshirilishi, Suyultirilgan gaz ishlab chiqaruvchilar uchun aksiz solig'ining bekor qilinishi, Mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig'i stavkasining 15% dan 10%gacha pasaytirilishi va Polietilen granulalari bo'yicha (shu jumladan importi uchun) aksiz solig'ining 20%dan 10%ga pasaytirilishi kabi o'zgarishlar ta'sir qildi.

2023-yilda aksiz solig'i tushumlariga 1 yanvardan boshlab oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, efiraldegidli fraksiyadan texnik rektifikatsiyalangan etil spirti va asosiy fraksiyadan etil spirtiga aksiz solig'i stavkasi 5 baravarga oshirilganligi, alkogol hamda tamaki mahsulotlari importiga soliq stavkasi 5 foizga pasaytirildi, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda aksiz solig'i stavkasini etil spirtining ulushidan kelib chiqib belgilanganligi, 2023 yil 1 fevraldan boshlab alkogol va tamaki hamda benzin, dizel yoqilg'isi va gazni ishlab chiqarishda aksiz solig'i stavkasi 10 foizga indeksatsiya qilinganligi kabi omillar ta'sir qildi.

2024 yilda aksiz solig'i stavkalari 3 bosqichda indeksatsiya qilinishi ko'zda tutilgan edi. Xususan, 1 yanvardan – tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish (sigaralar, chilim (kalyan) uchun tamaki, chekiladigan tamaki, trubkali tamaki va boshqalar) – stavkalar 12%ga oshirildi, oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, efiroaldegid fraksiyadan rektifikatsiyalangan texnik etil spirti va etil spirtining bosh fraksiyasi stavkalar 2 baravarga oshirildi, alkogol mahsulotlari, shuningdek filtrli sigaretlar, filtrsiz sigaretlar, papirosalar, sigarillar (sigaretalar), bidi, kretek importi – stavkalar 5%ga kamaytirildi.

Xulosa va takliflar.

Aksiz solig'i davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lishiga qaramay, bugungi kunda amaliyotda ushbu soliqni to'lovchilarini aniqlash, soliq stavkalarini qo'llash va soliqlarni undirish bilan bog'liq quyidagi yo'nalishlarda bir qator muammolar mavjud:

- Soliq kodeksining 289¹-modasiga ko'ra, qizdiriladigan tamaki tayoqchasi uchun aksiz solig'i stavkasi 341 000 so'm/kg miqdorida belgilangan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Tamakiga qarshi kurashish bo'yicha Hadli konvensiyasi Taraflari Konferensiyasining tegishli qaroriga ko'ra, "qizdiriladigan tamaki mahsuloti" tamaki mahsulotiga kiradi. Bu tamaki mahsulotlari uchun belgilangan barcha cheklov choralari tamakini qizdirish mahsulotiga ham tegishli ekanligini bildiradi.

Qizdiriladigan tamaki nikotin hamda boshqa kimyoviy moddalarga ega aerzollarni hosil qiladi va foydalanuvchi tamakini qizdirish tizimi vositasi yordamida ularni og'iz orqali ichiga yutadi. Bundan tashqari, ular odatiy sigaretalarni chekishga xos bo'lgan harakatlarni aynan takrorlaydi, ba'zilarida esa qizdiriladigan tamakini o'zida saqlovchi maxsus ishlab chiqarilgan sigaretalar ishlatiladi.

Bugungi kunda mazkur "VUSE" brendli elektron sigaretlar uchun aksiz solig'ining hisoblanishi tahlil qiladigan bo'lsak, mahsulotning chakana savdodagi narxi 65 000 so'mni

tashkil qilib, uning tarkibidagi aksiz solig'i ($605 \text{ so'm} * 2 \text{ ml} = 1\,210 \text{ so'm}$) chakana narxning 1,9 foizini tashkil etmoqda.

Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqliklar uchun aksiz solig'i stavkasining 2 barobar indeksatsiya qilinishi "VUSE" brendli elektron sigaretlar narxini 66 300 so'm ($1\,300 \text{ so'm}$ yoki 2 foiz)ga oshirib, uning tarkibidagi aksiz solig'i ($1\,210 \text{ so'm} * 2 \text{ ml} = 2\,420 \text{ so'm}$) chakana narxning 3,6 foizini tashkil etadi.

Shunga ko'ra, mazkur mahsulot turi uchun aksiz solig'i stavkasini kamida ikki barobarga indeksatsiya qilish davlat byudjetiga qo'shimcha soliq tushumlarini tushishiga olib keladi.

- Etil spirti ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan realizatsiya qilingan spirt mahsuloti hajmlari va ular uchun hisoblangan aksiz solig'i bo'yicha tahlillar o'tkazilganda ba'zi spirt ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan don distillyati sotilganligi ma'lum bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, amaldagi qonunchilikda "don distillyati" mahsulotiga aksiz solig'i hisoblanishi belgilanmagan.

Texnologik nuqtai-nazardan rektifikatsiya va distillyatsiya usullarining ikkalasida ham yakunda etil spirti mahsuloti ishlab chiqariladi.

- Qonunchilikda aksiz osti tovar ishlab chiqaruvchilar hamda ushbu tovarlarning savdosini amalga oshiruvchilar faoliyatida sayyor soliq tekshiruvlarini o'tkazish ularni xabardor qilish tartibida o'tkazilishi belgilangan.

Sayyor soliq tekshiruvlarida:

- alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilganligi va tegishli ruxsatnoma yoki litsenziyalar mavjudligi;

- saqlanayotgan, foydalanilayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlarga ularning qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi tekshiriladi.

Mazkur korxonalarda sayyor soliq tekshiruvlarini xabardor qilish tartibida amalga oshirish, kelib chiqishi noqonuniy bo'lgan tovarlar moddiy boyliklarni yashirish imkonini beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqoridagi tahlil va xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar va tavsiyalarni keltiramiz

1. Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi uchun aksiz solig'i stavkasini sigaretalar, papirosalar, sigarillalar (sigaritarlar), bidi, kretekler bilan tenglashtirish;

2. Alkogol mahsulotlariga nisbatan aksiz solig'i stavkalari belgilanishida amaldagi spirt turiga don distillyati va distillyatsiyalangan etil spirtini qo'shish;

3. Etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi hamda ularning savdosini amalga oshiruvchi korxonalarda qonun buzilish holatlarini aniqlash yuzasidan o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvlarini ularni xabardor qilmasdan amalga oshirish kelajakda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirilishida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Delipalla, S. (2009) *Commodity tax structure and informal activity. Bulletin of Economic Research*, 61(3), 283-294.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022- yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmoni.*

Giles, D.E., Tedds, L.M., & Werkneh, G. (2002) *The Canadian underground and measured economies: Granger causality results. Applied Economics*, 34(18), 2347-2352.

Hai, O.T., & See, L.M. (2011) *Behavioral intention of tax non-compliance among sole-proprietors in Malaysia. International Journal of Business and Social Science*, 2(6), 142-152.

Боровко Л.В. (2012) *Формирование социально-ориентированной модели акцизного налогообложения и эффективность её развития. Проблемы экономики и юридической практики*, No 6, с. 71-75.

Джамалов Х.Н., Уразметов Ж.М. (2021) *Задачи анализа финансово-хозяйственно-цифровой деятельности в новой системе финансового менеджмента. // Иқтисодиёт ва таълим, No 3, с. 96-103.*

Кодекс (2020) *Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи.-640 б.*

Нормурзаев У. (2021). *Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в Узбекистане. Economics and Education, (6), 82–86. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285*

Нормурзаев, У. (2021). *Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954* Нормурзаев, У. (2023).

Нормурзаев, У. (2023) *Солиқ имтиёзлари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 334–339. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51*